Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich
O‘zDJTU Jismoniy madaniyat va sport kafedrasi dotsenti

ADAPTIV JISMONIY TARBIYA SOHASIDAGI ILMIY-TADQIQOT VA AMALIYOTNING YANGI YO‘NALISHLARI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.18911952

Annotatsiya. Mazkur maqolada adaptiv jismoniy tarbiya sohasidagi ilmiy-tadqiqot va amaliyotning yangi yo‘nalishlari tahlil qilingan. Xususan, inklyuziv ta’lim tamoyillarining adaptiv jismoniy tarbiya tizimiga joriy etilishi, imkoniyati cheklangan shaxslarning jismoniy tarbiya va sport faoliyatiga teng asosda jalb etilishi, ularning jismoniy rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga integratsiyalashuvidagi ahamiyati yoritilgan. Maqolada O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xorijiy amaliyotdagi IDEA qonuni misolida inklyuziv ta’lim va adaptiv jismoniy tarbiyaning huquqiy asoslari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, maktabgacha, umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim bosqichlarida adaptiv jismoniy tarbiyani tashkil etishning zamonaviy shakllari, metodik yondashuvlari va ularni amaliyotga tatbiq etish masalalari tahlil etilgan.

Kalit so’zlar: adaptiv jismoniy tarbiya, inklyuziv ta’lim, imkoniyati cheklangan shaxslar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, ijtimoiy integratsiya

Kirish

So‘nggi yillarda pedagogika sohasida inklyuziv ta’lim bilan bog‘liq yangi yo‘nalish faol rivojlanmoqda. Ushbu yo‘nalish nogironligi yoki rivojlanishida turli xil nuqsonlar bo‘lgan bolalarni ta’lim muassasalariga samarali integratsiya qilish, ularning sifatli ta’lim olishlariga teng imkoniyatlar yaratish va jamiyatda to‘laqonli ishtirokini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ayni paytda dolzarb pedagogik masala sifatida e’tirof etilmoqda. Buning asosiy sababi 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, xususan, nogironligi bor shaxslarning ta’limi masalalariga bag‘ishlangan 20-modda bo‘ldi. Ushbu moddada ta’kidlanishicha, Inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan. Shuningdek, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim tashkil etiladi .

Jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyat yurituvchi ta’lim muassasalarining ishini tartibga soluvchi asosiy normativ hujjatlarda O‘zbekistonda ta’limni rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturi muhim huquqiy asos sifatida qayd etilgan. Mazkur dasturlar barcha toifadagi talabalar, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan shaxslarning ham professional ta’lim bilan to‘liq qamrab olinishini ko‘zda tutadi. Bu esa imkoniyati cheklangan yoshlarning sifatli ta’lim olishlari, jamiyatga samarali integratsiyalashuvlari hamda kelgusida kasbiy faoliyatda o‘zlarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishlari uchun muhim huquqiy kafolat vazifasini o‘taydi.

Xorijiy mamlakatlarda ham nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta’lim olish huquqlarini ta’minlash, ularning ta’lim muassasalariga samarali integratsiyasini amalga oshirish borasidagi faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazalar yaratilgan. Jumladan, AQShda 1975-yilda Ta’lim vazirligi tomonidan “Barcha nogironlar uchun ta’lim to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan bo‘lib, keyinchalik mazkur hujjat “Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ta’lim to‘g‘risidagi qonun” (IDEA – Individuals with Disabilities Education Act) nomini oldi. IDEA qonuni 3 yoshdan 21 yoshgacha bo‘lgan nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta’lim olish huquqini kafolatlaydi.

IDEA qonuni quyidagi asosiy tamoyillarni o‘z ichiga oladi:

Licensed under CC BY 4.0
https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

 davlat tomonidan nogironligi bo‘lgan shaxslarning bepul va sifatli ta’lim olish huquqini ta’minlash majburiyati;
 hech bir bolaning nogironligi sababli ta’lim olish imkoniyatidan mahrum qilinmasligi;
 nogironligi bo‘lgan har bir o‘quvchi uchun alohida individual ta’lim dasturini ishlab chiqish;
 nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarning sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda inklyuziv ta’lim olishlari;
 IDEA qonunida belgilangan huquqlarning amalga oshirilishida yuridik, moliyaviy va boshqa zarur yordamlarni taqdim qilish;
 individual ta’lim dasturlarini ishlab chiqishda nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar va ularning ota-onalari fikrining ustuvor ahamiyatga ega bo‘lishi.

Shunday qilib, IDEA qonuni nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta’lim jarayonida teng imkoniyatlarni qo‘lga kiritishi va jamiyatga to‘laqonli integratsiyalashuviga xizmat qiluvchi muhim xalqaro amaliyot hisoblanadi.

IDEA qonuni, shuningdek, yoshlarning adaptiv jismoniy tarbiyasi bilan bog‘liq munosabatlarni ham tartibga soladi. Ushbu qonunga muvofiq, nogironligi bo‘lgan har bir bolaga sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida qatnashish uchun imkoniyat yaratilishi shart. Agar bolaning sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda mashg‘ulotlarda qatnashishi imkonsiz deb topilsa, unda uning ehtiyojlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda alohida individual adaptiv jismoniy tarbiya dasturi ishlab chiqilishi talab etiladi. Shu bilan birga, davlat tomonidan har bir individual dasturda belgilangan barcha zarur xizmatlarning taqdim etilishi kafolatlanishi kerak. Bu esa imkoniyati cheklangan bolalarning ham jismoniy rivojlanishi, sog‘lomlashtirilishi va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga imkon beradi.

AQSh Federal qoidalari kodeksining 34-qismi, 300.108-moddasiga muvofiq, barcha ta’lim muassasalari imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishga teng imkoniyatlar yaratishga majburdir. Mazkur bandga ko‘ra, ta’lim muassasalari imkoniyatlari cheklangan shaxslarning sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida qatnashishi uchun zarur bo‘lgan barcha shart-sharoitlarni ta’minlashi lozim. Agar bunday umumiy mashg‘ulotlar tashkil etish imkoniyati mavjud bo‘lmasa, ta’lim muassasasi nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun individual tarzda mashg‘ulotlar tashkil qilishi yoki ular uchun boshqa davlat yoki xususiy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish imkoniyatini yaratish uchun tegishli choralarni ko‘rishi kerak. Bunda har bir shaxsning individual ta’lim dasturiga qat’iy amal qilinadi. Shu bilan birga, ta’lim muassasalariga imkoniyatlari cheklangan shaxslarning qonuniy huquqlarini har qanday vaziyatda himoya qilish majburiyati yuklatiladi.

Tadqiqotchilarning fikricha, inklyuziv ta’lim nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy moslashuvi va integratsiyasida katta imkoniyatlarga ega. Bu ta’lim shakli imkoniyatlari cheklangan shaxslarning oddiy ta’lim muassasalarida o‘qish jarayonida hayotga samarali moslashuviga, mehnat bozoriga muvaffaqiyatli kirib borishiga, jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga hamda jismoniy jihatdan faol bo‘lishiga keng imkoniyatlar yaratadi. Bunday integratsiya jarayoni esa, o‘z navbatida, ularning kelajakdagi kasbiy, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Inklyuziv ta’lim tamoyillari hozirgi kunda nafaqat umumta’lim jarayonida, balki jismoniy tarbiya va sport sohasida ham faol amalga oshirilmoqda. Jumladan, T.S.Ovchinnikova va hamkasblari tomonidan ta’kidlanishicha, zamonaviy davlat siyosatining asosiy ustuvor vazifalaridan biri imkoniyatlari cheklangan shaxslarning o‘zlarining sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda ta’lim olish, shu jumladan, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish huquqlarini kafolatlashdan iboratdir. Bu esa nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyatga

muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga hamda hayot sifatining yaxshilanishiga zamin yaratadi.

Inklyuziv ta'limning rivojlanishi, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslarning jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish imkoniyatlarining kengaytirilishi nogironlarni qo'llab-quvvatlash, reabilitatsiya qilish va ularni jamiyatga samarali integratsiya qilishga yo'naltirilgan davlat siyosatining yanada takomillashuviga olib keldi. Nogironligi bo'lgan shaxslarning sog'lom insonlar bilan birgalikda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishi mavjud diskriminatsiyani kamaytirish bilan bir qatorda, jamiyatda nogironlik muammosiga nisbatan munosabatlarni o'zgartirish, bag'rikenglikni shakllantirish va nogironligi bo'lgan shaxslarning to'laqonli jamiyat a'zolari sifatida qabul qilinishiga xizmat qiladi.

Inklyuziv sport tushunchasi imkoniyatlari cheklangan shaxslarning sport faoliyatiga jalb qilinishidagi yangi yo'nalishlardan biri bo'lib, bunda asosiy urg'u har bir insonning kasallik turi yoki jismoniy imkoniyatlaridan qat'i nazar, sport bilan shug'ullanishi uchun teng imkoniyatlarni yaratishga qaratiladi. Inklyuziv sportning asosiy afzalliklari sifatida shaxslarning jamiyatga samarali integratsiyalashuvini oshirish, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash va boshqalar bilan munosabatda bag'rikenglik hamda insoniylik tuyg'ularini rivojlantirishni qayd etish mumkin. Ushbu yondashuv jamiyatning imkoniyatlari cheklangan shaxslarga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun adaptiv jismoniy tarbiya jarayoniga inklyuziv ta'limni samarali joriy qilish metodikalari va uning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish borasida bir qator taniqli tadqiqotchilar tomonidan qimmatli ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarda S.P. Evseev, A.V. Shevsov, M.V. Tomilova, A.V. Aksenov, D.A. Firstova, G.A. Falaleeva, N.N. Setyaeva, T.N. Danilova, Ye.N. Alekseeva, A.M. Shevchenko, O.V. Kitikar, N.I. Filimonova, O.I. Ponomareva, T.I. Trishchina, S.A. Saranseva, G.V. Tuguleva, G.V. Ilina, L.A. Yakovleva, Ye.I. Ryabova kabi tadqiqotchilarning ishlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular mazkur sohani rivojlantirish va ilmiy-amaliy jihatdan boyitishda muhim o'rin tutmoqda.

Adabiyotlarni tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'lim tamoyillariga asoslangan adaptiv jismoniy tarbiya va sport barcha turdagi ta'lim muassasalari uchun o'ta dolzarb ahamiyatga ega. Bu esa imkoniyatlari cheklangan shaxslarning ta'lim olish jarayonida teng imkoniyatlarga ega bo'lishi, jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya qilinishi, jismoniy va psixologik salomatligini mustahkamlashi hamda ularning kasbiy va ijtimoiy hayotda to'laqonli faoliyat olib borishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim muassasalarida nogironligi bo'lgan bolalar uchun adaptiv jismoniy tarbiyaning inklyuziv shakllarini joriy etishga oid ilmiy tadqiqotlar soni sezilarli darajada oshdi. Jumladan, S.P.Romanova va hamkasblari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda nogironligi bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-madaniy rivojlanishida jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish tadbirlarining o'rni va ahamiyati alohida ta'kidlanib, ushbu faoliyat bolalarning jismoniy salomatligi bilan bir qatorda, ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ham ta'minlaydi, degan xulosaga kelingan.

Tadqiqotchilar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun inklyuziv jismoniy tarbiya faoliyatini tashkil qilishning quyidagi shakllarini alohida ajratib ko'rsatganlar: jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish tadbirlari (turli sport tadbirlari, musobaqalar va mashqlar majmui) hamda inklyuziv jismoniy mashqlar (jumladan, ertalabki badantarbiya, tushlikdan keyingi badantarbiya mashg'ulotlari). Mazkur shakllar bolalarning umumiy salomatligini mustahkamlash bilan birga, ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya qilishga imkoniyat yaratadi.

M.M.Ekimova va uning hamkasblari

tomonidan ham maktablarda adaptiv jismoniy tarbiyani inklyuziv ta'lim tamoyillari asosida samarali tashkil qilish bo'yicha keng ko'lamli tadqiqot va amaliy ishlar olib borilmoqda. Olimlar tomonidan olib borilgan ushbu tadqiqotlarda nogironligi bo'lgan o'quvchilarning sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishini ta'minlash, ularda jismoniy faollikni oshirish hamda ularning jamiyatga samarali integratsiyalashuvi uchun shart-sharoit yaratish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan.

Inklyuziv tamoyillarga asoslangan adaptiv jismoniy tarbiya umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim muassasalarida ham jadal rivojlanmoqda. Xususan, Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimidagi Farg'ona imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktabining nogironligi bo'lgan o'quvchilar uchun inklyuziv ta'lim muhitini shakllantirish va joriy etish borasida ko'p yillik samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq, mazkur muassasada jismoniy tarbiya bo'yicha o'quv dasturiga akademik soat ajratilmagan bo'lib, asosiy vazifalar darsdan tashqari mashg'ulotlar asosida nogironligi bo'lgan talabalar va sog'lom talabalarni birgalikdagi mashg'ulotlarda faol qatnashishini ta'minlashdir.

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Adaptiv jismoniy jismoniy tarbiya kafedrasida nogironligi bor talabalar uchun inklyuziv jismoniy tarbiya jarayonini tashkil etish bo'yicha samarali ishlar olib borilmoqda.

A.V. Aksenov tomonidan olib borilgan tadqiqotda sog'lom va tayanch-harakat apparatida nuqsonlari mavjud sportchilar, jismoniy tarbiya va adaptiv jismoniy tarbiya fakultetining 4-5-kurs talabalari hamda ushbu soha mutaxassislari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari tahlil qilingan. Ushbu so'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning ko'pchiligi (60-63%) mamlakatda inklyuziv jismoniy tarbiyani samarali tarzda joriy etish uchun zarur sharoitlar mavjudligini va bunga jamiyatning tayyor ekanligini ta'kidlashgan. Bu esa inklyuziv ta'lim tamoyillarini jismoniy tarbiya va sport sohasida yanada kengroq tatbiq qilish imkoniyatlari yuqori ekanligini ko'rsatadi.

I.N. Smirnov o'z tadqiqotida ta'lim muassasalari xodimlarining aksariyati inklyuziv jismoniy tarbiya jarayonini joriy qilish masalasiga ehtiyotkorlik va shubha bilan qarashlarini qayd etadi. Bunga asosiy sabab sifatida esa inklyuziv yondashuvni amalga oshirish uchun mavjud jismoniy tarbiya darslarining dasturi, tashkiliy shakllari va mazmunini sezilarli darajada o'zgartirish talab etilishi ko'rsatilgan. Shu bilan birga, muallif nogironligi bo'lgan shaxslarni sport seksiyalariga jalb qilish orqali inklyuziv jismoniy tarbiyani samarali tarzda amalga oshirish mumkinligini ta'kidlaydi, chunki sport seksiyalari majburiy darslarga nisbatan ancha moslashuvchan bo'lib, qat'iy talab va cheklovlarni o'z ichiga olmaydi. Shuning uchun ham, aynan ushbu yo'nalishda inklyuziv jismoniy tarbiyani samarali amalga oshirish uchun maxsus metodikalar ishlab chiqish zarur ekanligi alohida ta'kidlangan.

Mualliflar inklyuziv jismoniy tarbiyani rivojlantirish jarayonida mavjud bo'lgan qiyinchiliklarni tahlil qilar ekan, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim tamoyillarini tashkil etish hamda amalga oshirish bilan shug'ullanadigan professor-o'qituvchilar va boshqa mutaxassislarni qayta tayyorlash dasturlarini yanada takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydilar. Ushbu dasturlarni takomillashtirish orqali nogironligi bo'lgan talabalarga oliy ta'lim muassasalarida shaxsga yo'naltirilgan va ijtimoiy yo'naltirilgan yondashuv asosida sifatli va munosib ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish mumkin bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, imkoniyatlari cheklangan yoshlarning ta'lim olishda tenglik huquqlarini amalga oshirish, ularning jamiyatga samarali integratsiyasi va muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat yuritishlari uchun muhim poydevor yaratadi.

Xulosa

So'nggi yillarda adaptiv jismoniy tarbiya

sohasida ilmiy-tadqiqot va amaliyotning yangi yo‘nalishlari, avvalo, inklyuziv ta’lim tamoyillarining keng joriy etilishi bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, imkoniyati cheklangan shaxslarning ta’lim, jismoniy tarbiya va sport jarayonlariga teng asosda jalb etilishi ularning nafaqat jismoniy rivojlanishi, balki ijtimoiy moslashuvi, psixologik barqarorligi va kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorgarligi uchun ham muhim omil hisoblanadi.

Normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xorijiy amaliyotda IDEA kabi huquqiy mexanizmlar nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun inklyuziv ta’lim va adaptiv jismoniy tarbiyani tashkil etishning mustahkam huquqiy asosini yaratib bermoqda. Mazkur huquqiy yondashuvlar imkoniyati cheklangan bolalar va yoshlarning individual ehtiyojlarini hisobga olish, ularga mos ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida ishtirok etish imkoniyatini ta’minlash orqali ularning jamiyatga to‘laqonli integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni tasdiqlaydiki, inklyuziv tamoyillarga asoslangan adaptiv jismoniy tarbiya maktabgacha ta’limdan boshlab umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim bosqichlarigacha bo‘lgan barcha tizimlarda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish tadbirlari, inklyuziv mashqlar, sport faoliyati va harakatli o‘yinlar ularning nafaqat jismoniy rivojlanishiga, balki ijtimoiy-madaniy moslashuviga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Keyingi ta’lim bosqichlarida esa adaptiv jismoniy tarbiya yoshlarning jismoniy faolligini saqlash, ijtimoiy faolligini oshirish, o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash va jamoaviy muhitga moslashuvini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tadqiqotlar inklyuziv jismoniy tarbiyani amaliyotga tatbiq etishda qator muammolar ham mavjudligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, jismoniy tarbiya dasturlarining moslashtirilmaganligi, maxsus metodikalarning yetarli ishlab chiqilmaganligi, o‘qituvchi va mutaxassislarning tayyorgarlik darajasidagi kamchiliklar, ayrim ta’lim muassasalarida moddiy-texnik va tashkiliy sharoitlarning yetarli emasligi ushbu yo‘nalishning samaradorligini cheklab kelmoqda. Shu bois inklyuziv jismoniy tarbiyani rivojlantirishda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash, moslashtirilgan dastur va texnologiyalar yaratish, sport seksiyalari va darsdan tashqari mashg‘ulotlardan keng foydalanish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Евсеев, С. П. Теория и организация адаптивной физической культуры: учебник / С. П. Евсеев. — М. : Спорт, 2016. — 616 с.

2. Аксенов, А. В. Инклюзивное физическое воспитание в начальной школе: учебное пособие / А. В. Аксенов. — М. : Арис, 2013. — 115 с.

3. Аксенов, А. В. Инклюзивное физическое воспитание детей младшего школьного возраста : дис. ... канд. пед. наук : 13.00.04 / А. В. Аксенов. — СПб., 2011. — 203 с.

4. Смирнов, И. Н. Возможности инклюзии в физическом воспитании и спорте / И. Н. Смирнов // Современная наука: проблемы и перспективы развития : сборник статей международной научно-практической конференции : в 3 ч. Ч. 1. — Омск, 2017. — С. 240–243.

5. Овчинникова, Т. С. Методологические основы решения проблемы интеграции дошкольников с ограниченными возможностями здоровья / Т. С. Овчинникова // Известия Южного федерального университета. — 2009. — № 4. — С. 171–179.

6. Овчинникова, Т. С. Методы и формы работы с детьми, имеющими отклонения в развитии и ограниченные возможности здоровья : монография / Т. С. Овчинникова, Л. Н. Ростомашвили, Н. В. Лукьяненко ; под общ. ред. Н. В. Лалетина. — Красноярск : Центр информации, 2011. — 136 с.

7. Романова, С. П. Физкультурно-оздоровительное воспитание дошкольников в условиях образовательной интеграции / С. П. Романова, А. Н. Савчук // Вестник ТГПУ. — 2013. — № 4. — С. 151–154.

8. Екимова, М. М. Инновационные педагогические технологии в системе физического воспитания и оздоровления детей с ОВЗ в общеобразовательном пространстве / М. М. Екимова, В. А. Копылова, И. В. Койра // Школьная педагогика. — 2017. — № 2(9). — С. 33–36.

9. Овчинникова, Т. С. Система организации здоровьесберегающего педагогического процесса в условиях диверсификации дошкольного образования : монография / Т. С. Овчинникова. — СПб. : ЛГУ им. А. С. Пушкина, 2007. — 236 с.

10. Овчинникова, Т. С. Инклюзивное образование дошкольников с легкой степенью выраженности нарушений / Т. С. Овчинникова, А. А. Слободчикова, В. А. Калягин // European Social Science Journal. — 2011. — № 12(15). — С. 72–78.

11. Joldasbaeva R. et al. Comprehensive evaluation of training load in youth basketball players through integration of heart rate, movement tracking, and rate of perceived exertion //Journal of Physical Education and Sport. – 2025. – Т. 25. – №. 8. – С. 1647-1655.

12. Fudin M. S. et al. Effectiveness of Implementing Traditional Games on Basic Motor Skills in Students of Phase A at SDN 2 Buluagung //Indonesian Journal of Pedagogy and Teacher Education. – 2025. – Т. 3. – №. 1. – С. 34-40.

13. Мухамеджанов Ш. М. УЛУЧШЕНИЕ ФИЗИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ ДЕТЕЙ ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ВО ВРЕМЯ ЗАНЯТИЙ ФУТБОЛОМ //Интернаука. – 2019. – №. 3-1. – С. 72-73.

14. Мухамеджанов Ш. М. Возрастные особенности развития физических качеств //Молодой ученый. – 2016. – №. 21. – С. 899-901.

15. Мухамеджанов Ш. М. Теоретические основы педагогического моделирования: сущность и эффективность // Наука и мир. – 2019. – Т. 2. – №. 4 (68). – С. 44.